



## BUYUK IPAK YO'LI-MULOQOT YO'LI

**Mardonov Muhridin Islom o'g'li**

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi

e-mail; muhridinmardonov74@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7623730>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 25-yanvar 2023 yil

Ma'qullandi: 05-fevral 2023 yil

Nashr qilindi: 09-fevral 2023 yil

### KEY WORDS

*Ipak, Buyuk, Xan, Chjan Syan, Dovon, Xitoy, Rixtgofen, tranzit, U-Di, Tangiy Ganfu, Kurona, xunlar, Qang'kiya, gazlama, Sian, Zariasp, O'rta Osiyo, Jahon savdo yo'li.*

### ABSTRACT

*Buyuk ipak yo'li qadimdan sharq bilan g'arbni bog'lovchi karvon yo'li bo'lib xizmat qildi. "Buyuk ipak yo'li" atamasi kirib kelganiga ko'p bo'lgani yo'q. U ilk bor 1877-yilda nemis geografi Vilgelm Rixtgofen tomonidan nashr qilingan "Xitoy" nomli kitobida uchraydi. Buyuk ipak yo'li Xitoy, Hindiston, O'rta Osiyo, Yaqin Sharq hamda O'rta dengiz bo'yi mamlakatlari o'rtasidagi savdo-sotiq va madaniy aloqalar rivojlanishida muhim rol o'ynagan. Ushbu maqolada Buyuk ipak yo'lini tiklash dasturlari haqida ham ma'lumotlar kiritildi va yoritib berildi.*

Buyuk ipak yo'li haqidagi dastlabki ma'lumotlar Xitoy manbalarida uchraydi. Tatqiqotchilarning fikricha dastlabki ma'lumotlar mil.av.II-I asrlarda to'plangan. Xan imperiyasining U-di hukmronligi davrida (mil. avv. 140-86 yy.) mamlakatning g'arbiy hududlariga bo'lgan qiziqish kuchayadi. Xitoyliklar bu hududlarda o'sha davrda ancha xavfli bo'lgan harbiy kuchlar xunlar bilan to'qnashadilar. Xunlarga qarshi kurashda ittifoqchilar topish va ular bilan harbiy ittifoq tuzish maqsadida imperator U-di mil. avv. 138- yilda diplomat, sayohatchi va savdogar Chjan Syanni O'rta Osiyoga jo'natadi. Chjan Syan bir necha yil xunlar qo'lida asirlikda bo'ladi va mil. avv. 128-126 yillarda Farg'ona (Dovon) ga keladi. Dovon hukmdorlari bilan harbiy ittifoq tuzishda muvaffaqiyatsizlikka uchragan Chjan Syan ko'p qiyinchiliklardan so'ng yurtiga yetib keladi. Chjan Syan missiyasi Xitoy uchun G'arbiy o'lkalarga chiqishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Keyinchalik Xitoy imperatori bilan Dovon hukmdorlari o'rtasida qonli urushlar bo'lib o'tdi. Bu urushlarga asosiy sabab xitoyliklarni hayratga solgan Dovon "samoviy otlari" bo'lgan. Uning dastlabki tarmoqlari O'rta Osiyoning qadimgi shaharlaridan ham o'tgan. Xitoyning Sian shahriga kelib tarmoqlarga bo'linadi. Xususan bir tarmog'i Anosi-Xami-Qoshg'ar orqali Qo'qonga, undan esa Toshkentga o'tgan. Bu yerdan Jizzax va Samarqand orqali Buxoroga kelgan yo'l Urganch orqali Guryevga, u yerdan Oqsaroy orqali Qora dengiz bo'ylariga chiqqan. Yana bir tarmoq esa Dunxuan orqali Xo'tanga, undan Lohurga o'tib ketgan. Undan tashqari, Buxoroga kelgan tarmoq ikkiga bo'lingan. Bu tarmoqning janubiy yo'nalishi Buxoro-Qarshi-G'uzor-Kesh-Termiz orqali Nishopurga o'tgan va Hirot orqali Hindistonga o'tib ketgan. Nishopurdagi tarmoqlardan biri Tehron- Qazvin-Hamadon- Bog'dod- Palmira yo'nalishi bo'ylab O'rta Yer dengizi bo'yidagi Tir shahrigacha cho'zilgan. Umuman olganda Ipak yo'lining janubiy tarmog'i O'zgan orqali O'shga o'tib, Quva Marg'ilon- Qo'qon orqali Xo'jand, Samarqand, Buxoroga o'tgan. Shimoliy yo'nalishi

esa Xazar xoqonligi va Bulg'or davlati orqali Kiyev Rusi va Yevropa mamlakatlariga borib, bu tarmoq VI asrdan boshlab rivojlana boshlagan. Ipak yo'lining asosiy karvon yo'llaridan tashqari ichki savdo yo'llari ham mavjud edi. Hozirda "Buyuk ipak yo'li"ni tiklash bo'yicha dasturlar amalga oshirilmoqda. Xususan 1993-yil may oyida Bryusselda Yevropa komessiyasi, Markaziy Osiyo hamda Kavkaz mamlakatlari shuningdek Yevropa ittifoqi davlatlari vakillari uchrashuvi bo'lib o'tdi. Unda Yevropa va Osiyoni bir-biriga bog'laydigan Yevropa- Kavkaz-Osiyo transport yo'lasi "TRASEKA"ni barpo etish masalasi ko'rib chiqildi. Aytish mumkinki, ayni shu uchrashuv Buyuk ipak yo'lini tiklash borasidagi dastlabki amaliy qadam bo'ldi. Hozirga qadar jahonning 50 ga yaqin mamlakatlari TRASEKA yo'llari orqali o'z yuklarini manzillariga yetkazmoqda. Mzkur yo'ldan Sharq ham G'arb ham birday manfaat topadi. Markaziy Osiyo va Kavkaz uchun jahon bozoriga keng yo'l ochiladi. Yevropa va Osiyoni tutashtiradigan ana shu yo'lning asosiy bo'g'inida O'zbekiston joylashgan. Markaziy Osiyo va Qozog'iston davlatlarining ham markazida davlatimizning joylashishi qadimdan "Ipak yo'li"ning serqatnov trassalari o'tishiga sababchi bo'lgan. Hozir ham Markaziy Osiyoni Yevropa va Osiyo bilan bog'lab turuvchi avtomobil va temir yo'llarining asosiy qismi yurtimiz hududidan o'tadi. Hozirda jadal sur'atlar bilan Toshkent- Andijon- O'sh- Irkeshtom- Qashqar yo'li qurilmoqda. Bu yo'lning asosiy qismi O'zbekiston hududidan o'tadi. Ana shu yo'l Yevropa va Osiyoning asosiy eng katta shaharlarini, ya'ni Parij va Shanxayni bir-biri bilan bog'laydi. Qadimdan davlatlar o'rtasidagi yo'llar har jihatdan qulay joylarda o'rnatilgan. "Buyuk ipak yo'li" ham qumli cho'llar, baland tog'lar, bepoyon dashtlar orqali o'tib, shaharlar va qishloqlarni birlashtirgan. Hozirgi serqatnov avtomobillarining ko'pchiligi "Ipak yo'lga" to'g'ri keladi. 1998-yil sentyabr oyida Ozarbayjon poytaxti Boku shahrida TRASEKA yo'lini rivojlantirish bo'yicha xalqora anjuman bo'lib o'tdi. Unda 32 ta davlatning rahbari, 10 dan ortiq xalqaro tashkilot vakillari ishtirok etishdi. Anjumanda "Ipak yo'li"ni tiklash bo'yicha maqsad vazifalar belgilab olindi

### **Xulosa**

Buyuk ipak yo'li o'tkan davlatlar madaniy va iqtisodiy jihatdan yuksaldilar. Xususan Samarqandda Markaziy Osiyo tadqiqotlar Xalqaro Instituti ochilgan bo'lib, uning asosiy yo'nalishlaridan biri Buyuk ipak yo'li va uning bo'ylarida joylashgan shaharlarni o'rganishdir. O'zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti Islom Karimovning "Buyuk ipak yo'li sayyohlik yo'nalishlari" to'g'risidagi farmoni qabul qilishi keyingi tadbirlarni amalga oshirishga keng yo'l ochib berdi.

### **References:**

1. O'zbekiston Milliy Ensklopediyasi I jild. Toshkent 2005. 814-bet
2. O'zbekiston tarixi-R.H.Murtozoyev. Toshkent. 2005. 96-101-bet.
3. Buyuk ipak yo'li A.Xo'jayev. Toshkent. 2007/146-bet
4. Shi-Ji {Tarixiy xotiralar}-Sima Yan, Sima Chyan. 130 bob/17-bob; 54-bet.
5. Xan-Shu {Xan sulolasi tarixi}-Ban Gu. 200 bob/67-bob; 67-75-bet.
4. Panjiyev, J. T. O. G. L., Bozorov, Q. D. O. G. L., & Xolboyev, J. L. O. G. L. (2022). Artificial irrigation system during the reign of Amir Temur and the Temurids. *Science and Education*, 3(1), 154-156.
5. Nazirov, B. (2020). Ўзбекистонда жисмоний маданият ва спортнинг ривожланиш тарихи. СУРХОНДАРЁ: ИЛМ ВА ТАФАККУР.
6. Abdirasulovich, B. M. (2022). HISTORY OF UZBEK TAKIYAS IN ISTANBUL AND ECONOMIC

RELATIONS WITH THE OTTOMAN STATE. Modern Journal of Social Sciences and Humanities, 5, 116-119.

7. Bebitov, M., & Qalandarova, M. (2022). QADIMGI TURK (KOKTURK) XALQLARDA BOSHQARUV TAFAKKURINING ASOSIY TAMOYILLARI VA QONUNLARI. Eurasian Journal of Law, Finance and Applied Sciences, 2(12), 328-333.

8. Bebitov, M. A. (2021). TURKIYA ANTAKIYADAGI O'ZBEKLAR TAKIYASI TARIXI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(11), 1233-1241.

9. 9. Safarovich, N. B. (2022). Distribution of Modern Sports in Central Asia in Colonial Conditions (Late XIX and Early XX Centuries) Spread of Modern Sports in Middle Asia Under Colonial Conditions (End of the XIX Century-Beginning of the XX Century). CENTRAL ASIAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES AND HISTORY, 3(12), 21-29.

10. 10. Nazirov, B. (2022). Aburazzoq Samarqandiyning "Matlai sadayn va majma ul bahrayn" asarida tarixiy shaxslar talqini. "Lesson press" Nashriyoti.

11. 11. Panjiyev, J. T. O. G. L., Bozorov, Q. D. O. G. L., & Xolboyev, J. L. O. G. L. (2022). Artificial irrigation system during the reign of Amir Temur and the Temurids. Science and Education, 3((1), 154-156

